

LINGVISTIK TAHLIL VA SUD EKSPERTIZASI

To'rayeva Dildora Anvarovna

*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti(DSc),
g-mail: dildoratorayeva9@gmail.com*

Annotatsiya Ushbu maqolada shaxsiy yozishmalarning jahon va o'zbek tilshunosligidagi tadqiqi, ularni tahlil qilish usullari va sud-huquq tizimidagi ahamiyati xususida fikr yuritilgan. Shuningdek, sud ekspertizasida lingvistik tahlilning o'rni va ahamiyati xususida mulohaza berilgan va tahlillar bilan asoslanilgan. Lingvistik ekspertizani amalga oshirish metodikasi va metodlari ochib berilgan.

Kalit so'zlari: shaxsiy yozishma, hududiy birliklar, metodologiya, metod, lingvistik ekspertiza, sifat va miqdor, komponentlash, elektron yozishma, qo'lyozmalar, arealogiya, metodika, dialektologiya.

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ И КРИМИНАЛИСТИКА

Тураева Дилдора Анваровна

*Доктор философии (PhD) по филологическим наукам,
Докторант Ташкентского государственного университета узбекского
языка и литературы(DSc),
g-mail: dildoratorayeva9@gmail.com*

Аннотация: В данной статье рассматриваются исследования личной переписки в мировом и узбекском языкознании, методы их анализа и значение в судебно-правовой системе. Кроме того, место и важность лингвистического анализа в судебно-медицинской экспертизе рассматриваются и обосновываются анализами. Раскрыты методика и методы проведения лингвистической экспертизы.

Ключевые слова: личная переписка, территориальные единицы, методология, метод, лингвистическая экспертиза, качество и количество, компоновка, электронная переписка, рукописи, ареология, методика, диалектология.



LINGUISTIC ANALYSIS AND FORENSIC EXAMINATION

Turaeva Dildora Anvarovna

Doctor of philosophy in philology (PhD),

Doctor of science of Tashkent State University of Uzbek language and literature (DSc),

g-mail: dildoratorayeva9@gmail.com

Annotation: *This article examines the research of personal correspondence in world and Uzbek linguistics, methods of their analysis and their significance in the judicial and legal system. In addition, the place and importance of linguistic analysis in forensic medical examination are considered and justified by analyses. The methodology and methods of linguistic expertise are disclosed.*

Keywords: *personal correspondence, territorial units, methodology, method, linguistic expertise, quality and quantity, layout, electronic correspondence, manuscripts, areology, methodology, dialectology.*

Bugungi kunning talabiga muvofiq ko'plab sohalarida integratsiyalashuv jarayoni yuzaga kelmoqda. Talab va taklifdan asosiy maqsad esa jamiyat hayotini yaxshilashdir. Xususan, sud-huquq tizimida shunday munozarali vaziyatlar yuzaga keldiki, bu tilshunoslik bilimlariga ehtiyojni yuzaga keltirdi. Xo'sh, huquqshunoslik va tilshunoslik sohalarining integratsiyalashuvi qanday yuzaga keldi? Buni qay vaziyat taqozo etdi? Yillar davomida qo'lyozma va xatlar sud jarayoni uchun daliliy manba bo'lishi barchaga ma'lum. Xatshunoslik, muallifshunoslik kabi ekspertiza turlari bunday daliliy ashyolarni tekshirish bilan shug'ullanishdi. Ammo masalaning to'la yechimiga erishilmadi. Endilikda G'arbiy davlatlarda dastavval yuzaga kelgan lingvistik ekspertologiyaga ehtiyoj sezila boshlandi. Dunyo tilshunosligida yuridik lingvistika atamasi XX asrning ikkinchi yarmida keng qo'llanila boshlandi. Bu soha rus, ingliz tilshunosligida taraqqiyot darajasiga yetgan bo'lib, 90-yillarda uning tarkibiy qismi sifatida lingvistik ekspertiza yo'nalishi shakllandi. Lingvistik ekspertiza huquq va tilshunoslik sohalarining kesishuvi natijasida yuzaga kelgan bo'lib, inson sha'ni, qadr-qimmatiga putur yetkazuvchi birliklarni til doirasida o'rganuvchi tilshunoslikning amaliy yo'nalishidir. Fan-texnika taraqqiyoti natijasida ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalayotgan muallifi noma'lum bo'lgan va muammoli deb topilgan diniy-ekstremizm, terrorizm, turli yo'nalishdagi tahdid va da'vat xarakteridagi, insoniyat ma'naviy ongiga salbiy ta'sir etuvchi yozishmalarning lingvistik ekspertizasi bo'yicha dunyo tilshunosligida keng qamrovli tadqiqotlar olib



borilmoqda. Bu anonim yozishmalar muallifini aniqlash, matnda plagiatlik holatlarini tekshirish, savdo belgisi, korxonalar nomlaridagi ko'chirmachilikka oydinlik kiritish kabi muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga imkoniyat yaratadi. Demak, bu sohadan ko'zlangan maqsad esa yuqoridagidek daliliy manbalardagi til birliklarini lingvistik jihatdan tahlil qilish va shu orqali muammoli vaziyatning yechimiga erishishdir. Bundan taashqari lingvistik ekspertologiya faqatgina huquqshunoslik emas, balki psixolingvistika, sotsiologiya, entosotsiologiya, lingvokulturologiya kabi fanlar doirasidagi muammoli vaziyatlarga ham oydinlik kiritadi. Xususan, bu soha reklama matnlaridagi imloviy jihatlar, targ'ib etiluvchi g'oyalar, da'vat etish kayfiyatidagi fikrlarni ham o'rganadi. Shaxsiy yozishmalarining lingvistik tahlilida tilshunoslik, sotsiologiya, areal lingvistik, lingvistik geografiya, matn tilshunosligi, pragmalingvistika, psixolingvistika bilan bir qatorda psixologiya, biologiya, fizika kabi soha mutaxassislarining xulosalari muhim o'rinda turadi¹¹. Shunday ekan, tahlil jarayonida faqat tilshunos-ekspertning xulosalari bilan chegaralanib qolmay, balki turli soha mutaxassislarining xulosalari bilan umumlashtiriladi. Hech bir tarmoq alohida rivojlanmaganidek, lingvistik ekspertizada turli fanlarning integratsiyalashuv jarayoni aniq xulosa hosil qilishga yordam beradi. Bu lingvistik ekspertizada muallifning temperamenti, psixofiziologik holati, axloqi, ijtimoiy mavqeyi, hududiy mansubligi kabilar haqida ma'lumot olishga yordam beradi, huquqshunosning muammoli yozishmalarini ochib berishida ancha qo'l keladi.

Sud jarayoni uchun muammoli va anonim yozishmalar tahlilida lingvistik bilimlar talab etiladi. Masalan, hududga aloqador birliklarning lingvistik ekspertizasini amalga oshirishda anonim yozishmalar muhim obyekt sanaladi. Bunda tadqiqotchi olim S.N.Zeitlin "Nutqiy xatolar va ularning oldini olish" mavzusidagi tadqiqotida nutqiy-me'yoriy buzilishlarni quyidagicha farqlaydi:

- a) so'z shakllanishi – so'zlashuv jarayonida tasodifiy, inson bilmagan holda noadabiy shakllangan so'zlarni qo'llashdan iborat;
- b) morfologik – so'z tarkibining g'ayritabiiy shakllanishi va nutq qismlarini ishlatishdan iborat;
- c) sintaktik – so'z birikmalarini, oddiy va murakkab jumalarni noto'g'ri tuzishdan iborat;
- d) leksik – noadabiy leksik unsurlar, kanselyarizm, parazit so'zlardan iborat;
- e) frazeologik – frazeologik birliklarni noadabiy me'yorda qo'llashdan iborat;

¹¹ <https://youtu.be/7HCGob75xGQ> Join Dr. Robert Leonard, professor of linguistics and director of Hofstra's graduate program in forensic linguistics, to learn how the... Forensic Linguistics: Using Language Analysis to Solve Crimes with the FBI



g) uslubiy – so‘zlashuv uslublariga rioya qilmaslikdan iborat¹².

Masalan, har bir inson so‘zlayotganda adabiy me‘yordan chetga chiqishi mumkin. Ya‘ni nutqiy hosilalar areal va sotsial chegaralangan bo‘lishi mumkin. *Nutqning areal chegaralanishi* – adabiy tilga oid birliklarning leksik, semantik, grammatik va sintaktik jihatdan ma‘lum bir hududga xoslanishidir. Areal lingvistika terminini XIX asrning 1-yarmida italyan olimi K.Bartol o‘z tadqiqotida qo‘llagan va, keyinchalik, bu soha Yevropa olimlari e‘tiboriga tushgan. Uning fikricha, areal lingvistika til, dialekt, shevalarni hudud doirasiga muvofiq tarzda o‘rganuvchi tilshunoslik tarmog‘idir. Lingvistik geografiya, areal lingvistika sohalarining huquq tizimi bilan integratsiyalashuvi shaxsiy yozishmalarda til birliklarining hududiy xoslanishini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Anonim shaxsiy yozishma tahlilida ikki: sifatli va miqdoriy yondashuv mavjud. Sifatli yondashuvda matnni tahlil qilish va izohlash uchun, dastavval, matnning tili, uslubini tavsiflash kerak. Shu orqali matnning xususiyatini aniqlab olish, so‘ng ma‘lum yozuvchiga xosligini aniqlashdan iborat. Ikkinchi yondashuvda esa matndagi so‘zlar, adabiy me‘yordan chekinish holatlari va punktuatsion belgilar chastotasini hisoblash orqali miqdoriy yondashuv amalga oshiriladi¹³. Olim A.N.Baranovning fikricha, kontekstual tahlil usuli asosida hududiy xoslangan leksik birliklarni aniqlash samarali natija beradi. Kontekstual tahlilning mohiyati shundan iboratki, inson yozma nutqida aks ettirgan so‘zlarning umumiy mazmun bilan aloqadorligi tahlil qilinadi. Bunda insonning nutqiy ko‘nikmaga ega so‘zlari aniqlanishi mumkin, masalan, chunki, mumkin, demak kabi birliklarni nutqda maqsadsiz ravishda ishlatish. Shuningdek, insonning til bilish salohiyatini belgilab olish mumkin. Masalan, gap bo‘laklarining turli shaklda ishlatish, gap qurilishining o‘zgachaligi, so‘zlarning mazmunan nomuvofiqligi kabi masalalar. Albatta, bu ehtiyojdan kelib chiqqan holda qo‘llanadi. Ushbu metodda yozishmani tahlil qilish nutq birliklarining hududiy aloqadorligini aniqlashda ham ancha qo‘l keladi. Bu ham anonim yozishma bilan aloqador bo‘lib, muallifning shevasi va qay viloyat yoki tumanga mansubligini belgilab beradi.

Lingvistik tahlilning sud ekspertizasi bilan aloqadorligi reklama matnlaridagi targ‘ibot, da‘vatga oid masalalar, tovar belgisi nomlaridagi mualliflik huquqi, badiiy asar yoki davlat ahamiyatiga molik rasmiy hujjatlarda so‘zlar semasining insoniyat manfaatlariga munosabati, normativ-huquqiy hujjatlar tarjimasidagi g‘oyaviy

¹² Цейтлин С.Н. Речевые ошибки и их предупреждение: Пособие для учителей. – Москва: Просвещение, 1982, – 21 с.

¹³ Michell C.S. Investigating the use of forensic stylistic and stylometric techniques in the analyses of authorship on a publicly accessible social networking site (FACEBOOK). submitted in accordance with the requirements for the degree of MASTER OF ARTS. University of South Africa, 2013. – 64 pp.




nomutanosibliklar kabi masalalar bilan belgilanadi. Xususan, Adidas nomli Tovar belgisi muayyan yuridik tashkilotga tegishli. Uni boshqa bir korxonaga aynanligicha o'zlashtirib olish huquqiga ega emas. Yoki bangixona yoki tungi xizmat ko'rsatuvchi muassasalarda targ'ibot, da'vat masalalariga oid nomlarning qo'yilishi. Badiiy asar kitobxoniga boshqa din yoki g'oyaning targ'ibotiga oid so'zlarning ishlatilishi. Yuqoridagilarning bari sud-huquq tizimi uchun muammoli vaziyatni yuzaga keltiradi va bu lingvistik tahlilni talab etuvchi holatdir. Shuningdek, lingvistik ekspertologiya areologiya bilan ham aloqador sanaladi. Misol uchun, yillar davomida muallifi aniqlanmagan arab, fors-tojik tilidagi qo'lyozma matnlarni tilshunoslik bilimlari asosida tahlil qilish, ularning muallifini aniqlashga yordam beradi. Bunda arxeologik izlanishlar qo'lyozmaning qaysi davrga taalluqligini aniqlaydi. Lingvistik tahlilda esa aniqlangan davrdagi ijodkorlarning qo'lyozma namunalari o'rganiladi va muammoli matndagi lisoniy birliklar bilan solishtiriladi. Bunda ijodkorning nutqiy ko'nikmalari, so'zlar semasidagi o'ziga xosliklar va yangi ma'no qirralarining kontestual mohiytidagi jihatlari hisobga olinadi. Masalan, qomusiy olimlarning dunyoni ilonga o'xshatish usulini misol qilish mumkin. Bu jarayonga xatshunoslik ekspertizasidan ham foydalaniladi. Bunda harflarning katta-kichikligi, yotiqsimon yoki cho'ziqsimonligi, ularning uchburchak, to'rtburchak kabi shakliy ifodalar bilan aks etishi kabi jihatlari e'tiborga olinadi. Demak, sud ekspertizasi va lingvistik tahlil jamiyat uchun muammoli vaziyatlarning yechimiga erishish maqsadida o'zaro kesishuvni yuzaga keltirdi. O'zbek tilshunosligi uchun bu yangi soha bo'lib, ushbu yo'nalish rivoji orqali yechimini kutayotgan masalalar ham talaygina.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Антонов О.Ю. Особенности использования специальные знаний в области лингвистики при изучении электронной переписки в ходе расследования половых преступлений в отношении несовершеннолетних // – Москва, 2018. – С. 5-11.
2. Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М.: Прогресс, 1993. – С. 656.
3. Ким Л.Г. Холистические принципы проведения идентификационной автороведческой экспертизы разножанровых текстов. Современная теоретическая лингвистика и проблемы судебной экспертизы: сборник научных работ по итогам Международной научной конференции «Современная теоретическая лингвистика и проблемы судебной экспертизы»





(Москва, 1–2 октября 2019 г.). – М.: Государственный институт русского языка им. А. С. Пушкина, 2019. – С. 507-509.

4. Баранов А.Н. Авторизация текста: пример экспертизы // Цена слова: Из практики лингвистических экспертиз текстов СМИ в судебных процессах по защите чести, достоинства и деловой репутации. – М., 2002. – С. 356–363.

5. Ярощук И.А., Жукова Н.А., Долженко Н.И. Лингвистическая экспертиза: Учебное пособие / – Белгород: ИД «БелГУ» НИУ «БелГУ», 2020. – 16 с.

6. Цейтлин С.Н. Речевые ошибки и их предупреждение: Пособие для учителей. – Москва: Просвещение, 1982, – 21 с.

7. Milom V.L. Native Language Analysis in Forensic Linguistic Contexts: A Pilot Study Using Four Languages, 2019. – 2 p.

8. Michell C.S. Investigating the use of forensic stylistic and stylometric techniques in the analyses of authorship on a publicly accessible social networking site (FACEBOOK). submitted in accordance with the requirements for the degree of MASTER OF ARTS. University of South Africa, 2013. – 64 pp.

9. Баранов А.Н. Лингвистическая экспертиза текста: теория и практика [Текст]: Учеб. пособие / А. Н. Баранов. – Москва: Флинта: Наука, 2007. – 592 с.

